

KONFERENSIYALAR UZ

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

AVGUST, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-259-6

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari" nomli IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Foziljonov Xojjiakbar

ОБЗОР ТЕСТ ПАТТЕРНОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАМЕТРОВ ПЭМИ ВИДЕОТРАКТОВ
CBT.....7-11

Mamadaliyeva Gulhayo

QANOT UYUMLARI TENG BO'LMAGAN EGAT OCHGICHINI QANOTINING BALANDLIGINI
UNING ISH KO'RSATGICHLARIGA TA'SIRI 12-16

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLAR SIFATI: ILMIY-TAHLILY YONDASHUV..... 17-19

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI
QIYOSIY FARQLAR..... 20-23

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI 24-25

Xasanova Nargiza

AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA 26-29

Rustamova Nigora

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI 30-32

Xalilov Baxodir

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING ROLI: "KAMOLOT"
TASHKILOTI FAOLIYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida) 33-37

Норов Шухрат

УЧАСТИЯ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере Самарканда, Бухары и Навои) 38-41

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI (Surxondaryo viloyati 1991-2022 yillarda) 42-43

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH
METODIKASI 44-47

Abduraimova Nigora

TABAQALASHTIRILGAN SOLIQ STAVKALARINI QO'LLASH
BO'YICHA JAHON TAJRIBASI 48-51

Sidiqov Jasurbek

IJTIMOY INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR..... 52-56

Nematova Dilnoza

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 57-63

Axmedova O'g'ilshod

O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA ISLOM MOLIYASI
INSTRUMENTLARINING JORIY ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI 64-66

<i>Abduraimova Nigora</i> TABAQALASHTIRILGAN STAVKALARNI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR	67-70
<i>Tuychiyev Anvarjon</i> MAMLAKAT XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	71-75
<i>Asqarov Abrorjon</i> TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI	76-85
<i>Yusufjonov Ravshanbek</i> INVESTMENTS IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	86-88
FALSAFA FANLARI	
<i>Gafurova Munajat</i> O'ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGSIZLIGINING IJTIMOY TABIYATI VA UNING BARTARAF ETILISH YO'LLARI.....	89-92
<i>Abdullayev Sodiqjon</i> ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI	93-98
FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Yusufova Farangiz</i> HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIY-ESTETIK TALQIN.....	99-102
<i>Xoliyorova To'lg'anoy</i> O'ZBEK TILI O'QITISH JARAYONIDA KORPUS LINGVISTIKASI VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	103-104
<i>Ro'ziyev Temur</i> IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI	105-112
<i>Eshchanova Mavjuda</i> CLASSICAL CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS: SEMANTIC, PRAGMATIC AND FUNCTIONAL APPROACHES.....	113-115
<i>Sobirova Shahzoda, Jumayeva Dilfuza</i> ALISHER NAVOIY ASARLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida).....	116-119
<i>Bahromjonova Shahnoza</i> "MOMOTARO" YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI	120-122
<i>Maxmudova Marjona</i> "DOLZARB 90 KUN" TASHABBUSI DOIRASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI BOSQICHI.....	123-124
<i>Gulmuradova Sobira</i> TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIKMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR.....	125-127
<i>Qurbonova Aziza</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARNING AHAMIYATI	128-129
<i>Pulatjonova Muxtasar</i> ENGLISH LEARNING DIFFICULTIES OF UZBEK LEARNERS: A QUESTIONNAIRE-BASED STUDY.....	130-136

<i>Qosimova Malika</i> LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH METODLARI	137-140
<i>Ayimbetova Damekhan</i> ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O'RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE'RIYATI VA OBRAZLAR TIZIMI	141-145
<i>Yo'ldasheva Mahliyo</i> "MARTIN IDEN" VA "OQ SO'YLOQ" ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	146-149
<i>YURIDIK FANLARI</i>	
<i>G'ofurov Ramzbek</i> DASTLABKI TERGOVDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI	150-154
<i>Turdibaeva Mukhaddas</i> JUDICIAL REFORMS OF UZBEKISTAN-A NEW ERA, NEW APPROACHES	155-160
<i>Gafurova Shoir</i> ELEKTRON DALILLARNI TO'PLASH VA TAQDIM ETISHNING AMALIY MUAMMOLARI	161-165
<i>Komilov Avazbek</i> PROKURORNING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RSIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QARORI VA UNING SHAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO'YILGAN TALABLAR	166-169
<i>Babajanov Farrux</i> IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS ETTIRISH	170-175
<i>PEDAGOGIKA FANLARI</i>	
<i>Нуриллаева Угулхон</i> ПРОЦЕССЫ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (feedback) И МОНИТОРИНГА: ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ МЕЖДУ СТУДЕНТОМ И ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ	176-181
<i>Tursinova Zoxida</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEKANIZMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI	182-191
<i>Babayeva Shahnoza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA DOLZARBLIGI	192-194
<i>Rasulova Barnoxon</i> KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV INNOVATSION BAHOLASH USULLARI	195-199
<i>Zokirjonov Akramjon</i> O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI	200-202
<i>Baratova Yulduz</i> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVNING AHAMIYATI	203-206

Sattoriy Shohruh

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI 207-210

TIBBIYOT FANLARI

Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza

AUTOIMMUN TIREOIDIT VA SELEN..... 211-213

Мамадалиев Хасанхон

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА (АФС)

И УРОВЕНЬ АНТИФОСФОЛИПИДНЫХ АНТИТЕЛ У ЖЕНЩИН-РОДИЛЬНИЦ: КЛИНИКО-

МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ..... 214-218

Maxmudbekov Boburmirzo

BOLALARDA PASTKI JAG' O'TKIR ODONTOGEN OSTEOMIELITINI KOMPLEKS DAVOLASHDA

OPERATSIYADAN KEYINGI YARALARNI MAXALLIY DAVOLASH..... 219-221

PSIXOLOGIYA FANLARI

Усманова Лилия

ЭТАПЫ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА СЕМЬИ: ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В НАУЧНОЙ

ТРАДИЦИИ 222-225

SIYOSIY FANLAR

Sa'diyev Bahodir

ENERGETIKANING RIVOJLANISH OMILLARI VA ASOSIY GLOBAL AKTYORLARI..... 226-231

IQTISODIYOT FANLAR

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASI

Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich

Mustaqil izlanuvchi, Namangan Davlat Texnika Universiteti

E-mail: bahtiyorkuchkarov@gmail.com

ORCID: orcid.org/0009-0005-7727-7344

Namangan, O'zbekiston

Anotatsiya. Ushbu tezisda kichik biznes subyektlarida aylanma mablag'lar samaradorligini baholash metodikasi ishlab chiqilgan. Tezisda aylanma mablag'lar samaradorligini baholashning asosiy tamoyillari va ko'rsatkichlari belgilangan, hamda ularning kompleks baholash usullari taqdim etilgan. Shuningdek, aylanma mablag'larni boshqarish orqali kichik biznes subyektlarining likvidligi, rentabelligi va raqobatbardoshligini oshirish yo'llari ko'rsatilgan. Ushbu metodikaning amaliy qo'llanilishi kichik biznes subyektlarining moliyaviy holatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, aylanma mablag'lar, samaradorlik, baholash metodikasi, likvidlik, rentabellik, debitor qarzarlar.

METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFICIENCY OF WORKING CAPITAL IN SMALL BUSINESS ENTITIES

Kuchkarov Bakhtiyor Khoshimdjanovich

Independent researcher, Namangan State Technical University

Annotation. This thesis develops a methodology for evaluating the efficiency of working capital in small business entities. The thesis defines the basic principles and indicators for assessing working capital efficiency, and presents methods for their comprehensive evaluation. It also shows ways to improve liquidity, profitability and competitiveness of small business entities through working capital management. The practical application of this methodology serves to improve the financial condition of small business entities.

Key words: small business, working capital, efficiency, evaluation methodology, liquidity, profitability, accounts receivable.

DOI: <https://doi.org/10.47390/259-6/uzb-IV/No-11>

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy o'sishida muhim rol o'ynaydi. Kichik biznes korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyati ko'p jihatdan aylanma mablag'lardan samarali foydalanish darajasiga bog'liq.[1] Aylanma mablag'lar - bu korxonaning joriy faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bo'lib, ularning samarali boshqaruvi biznesning likvidligi, rentabelligi va raqobatbardoshligini ta'minlaydi.[2]

Kichik biznes subyektlarida aylanma mablag'lar samaradorligini to'g'ri baholash metodikasini ishlab chiqish va qo'llash amaliyoti nafaqat individual korxonalar uchun, balki butun iqtisodiy tizim uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aylanma mablag'larning samarali aylanishi korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlab, investitsion imkoniyatlarni kengaytiradi va ish o'rinlarini yaratishga yordam beradi.[3]

Hozirgi kunda kichik biznes subyektlarida aylanma mablag'lar samaradorligini baholash bo'yicha yagona metodika mavjud emas. Mavjud yondashuvlar asosan katta korxonalar uchun ishlab chiqilgan bo'lib, kichik biznesning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq hisobga olmaydi. Shu sababli, kichik biznes subyektlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda aylanma mablag'lar samaradorligini kompleks baholash metodikasini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Aylanma mablag'lar samaradorligi deganda korxonaning joriy faoliyatini ta'minlash uchun ajratilgan moliyaviy resurslardan optimal foydalanish darajasi tushuniladi. Bu ko'rsatkich korxonaning aylanma mablag'larini qanchalik tez va samarali ishlatishini, ularning aylanish tezligini va rentabelligini aks ettiradi.

Kichik biznes subyektlarida aylanma mablag'lar samaradorligini baholash uchun quyidagi asosiy tamoyillarni hisobga olish zarur:[4]

Komplekslik tamoyili - aylanma mablag'lar samaradorligini baholash barcha tarkibiy qismlar (zaxiralar, debitor qarzlari, pul mablag'lari)ning o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Dinamiklik tamoyili - baholash jarayonida vaqt o'tishi bilan aylanma mablag'lar tarkibi va strukturasidagi o'zgarishlarni kuzatish muhim ahamiyatga ega.

Nisbiylik tamoyili - aylanma mablag'lar samaradorligini baholashda absolyut ko'rsatkichlar bilan bir qatorda nisbiy ko'rsatkichlardan ham foydalanish zarur.

Soha xususiyatlari tamoyili - turli sohalarida faoliyat yurituvchi kichik biznes subyektlarining aylanma mablag'lar samaradorligini baholashda sohaviy xususiyatlarni hisobga olish lozim.

Kichik biznes subyektlarida aylanma mablag'lar samaradorligini baholash uchun quyidagi 1-jadvaldagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq:

1-jadval

Kichik biznes subyektlarida aylanma mablag'lar samaradorligini baholash ko'rsatkichlari

No	Ko'rsatkich nomi	Hisoblash usuli	Izoh
Aylanish tezligi ko'rsatkichlari:			
1	Aylanma mablag'larning umumiy aylanish koeffitsienti (K_{ayl})	$K_{ayl} = SH / Ayl_{o'rt}$	SH - sotish hajmi $Ayl_{o'rt}$ – aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati
2	Zaxiralarning aylanish koeffitsienti (K_z)	$K_z = SMT / Z_{o'rt}$	SMT - sotilgan mahsulot tannarxi $Z_{o'rt}$ – zaxiralarning o'rtacha qiymati
3	Debitor qarzlarning aylanish koeffitsienti (K_{dq})	$K_{dq} = KSH / DQ_{o'rt}$	KSH - kredit sotuv hajmi $DQ_{o'rt}$ –debitor qarzlarning o'rtacha qiymati
Aylanish davri ko'rsatkichlari:			
4	Aylanma mablag'larning aylanish davri (kunlarda)	$D_{ayl} = 365 / K_{ayl}$	K_{ayl} –aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti

	(Dayl)		
5	Zaxiralarning aylanish davri (kunlarda) (D_z)	$D_z = 365 / K_z$	K_z - zaxiralarning aylanish ko'effitsienti
6	Debitor qarzlarning aylanish davri (kunlarda) (D_{dq})	$D_{dq} = 365 / K_{dq}$	K_{dq} - debitor qarzlarning aylanish ko'effitsienti
Samaradorlik ko'rsatkichlari:			
7	Aylanma mablag'larning rentabelligi (R_{ayl})	$R_{ayl} = SF / Ayl_{o'rt}$	SF - sof foyda Aylo'rt - aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati
8	Aylanma mablag'larning daromad keltirish ko'effitsienti	$F_{ayl} = SH / Ayl_{o'rt}$	SH - sotish hajmi Aylo'rt - aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati

Kichik biznes subyektlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda aylanma mablag'lar samaradorligini baholash metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:[5]

Birinchi bosqich: Dastlabki tahlil. Ushbu bosqichda korxona faoliyatining asosiy yo'nalishi va sohaviy xususiyatlari aniqlanadi. Aylanma mablag'larning tarkibi va strukturasi tahlil qilinadi hamda hisobot davrida aylanma mablag'lardagi o'zgarishlar kuzatiladi.

Ikkinchi bosqich: Ko'rsatkichlarni hisoblash. Bu bosqichda yuqorida ko'rsatilgan barcha ko'rsatkichlar hisobot davri uchun hisoblanadi. Oldingi davrlar bilan solishtirib, dinamika aniqlanadi va sohaviy o'rtacha ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi.

Uchinchi bosqich: Kompleks baholash. Barcha ko'rsatkichlar kompleks tahlil qilinadi, aylanma mablag'lar samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanadi hamda kuchli va zaif tomonlar belgilanadi.

To'rtinchi bosqich: Takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish. Aylanma mablag'lar samaradorligini oshirish uchun konkret takliflar beriladi, takliflarning amalga oshirish muddatlari belgilanadi va kutilayotgan natijalar prognozlashtiriladi.

Kichik biznes subyektlarida aylanma mablag'lar samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'llardan foydalanish mumkin:[7]

Kichik biznes subyektlarida aylanma mablag'lar samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'llardan foydalanish mumkin:

Zaxiralarni boshqarish jihatidan zaxiralarning optimal hajmini aniqlash va saqlash, tez buziladigan mahsulotlar zaxiralarini kamaytirish hamda zaxiralarning aylanish tezligini oshirish uchun sotish faoliyatini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Debitor qarzlarni boshqarish jihatidan mijozlarni kredit qobiliyatini tekshirish tizimini yaratish, debitor qarzlarni yig'ish muddatlarini qisqartirish va naqd to'lovlarni rag'batlantirish tizimini joriy etish zarur.[8]

Pul mablag'larini boshqarish jihatidan pul mablag'larining optimal hajmini saqlash, ortiqcha pul mablag'larini qisqa muddatli investitsiyalarga yo'naltirish va pul oqimlarini rejalashtirish tizimini yaratish tavsiya etiladi.

Kichik biznes subyektlarida aylanma mablag'lar samaradorligini baholash metodikasi korxonaning moliyaviy holati va faoliyat samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ishlab chiqilgan metodika kichik biznesning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aylanma mablag'lar samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi.[6]

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, aylanma mablag'lar samaradorligini baholash jarayonida komplekslik, dinamiklik, nisbiylik va soha xususiyatlari tamoyillariga amal qilish zarur. Bu tamoyillar asosida ishlab chiqilgan metodika kichik biznes subyektlarining aylanma mablag'lardan samarali foydalanish darajasini obyektiv baholash imkonini beradi.

Kichik biznes subyektlarida aylanma mablag'lar samaradorligini oshirish uchun zaxiralarni, debitor qarzlarni va pul mablag'larini samarali boshqarish tizimini yaratish lozim. Bu orqali korxonaning likvidligi, rentabelligi va raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshirilishi mumkin.

Kelgusida kichik biznes subyektlarida aylanma mablag'lar samaradorligini baholash metodikasini yanada takomillashtirib, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda avtomatlashtirilgan baholash tizimini yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa kichik biznes subyektlarining aylanma mablag'larini boshqarish samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

Aylanma mablag'lar samaradorligini baholash metodikasining amaliy qo'llanilishi kichik biznes subyektlarining moliyaviy holati va faoliyat natijalarini yaxshilashga, shuningdek, mamlakatning iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ushbu metodikani kichik biznes subyektlarida keng qo'llash va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abbasova O. M. Sovershenstvovanie razvitiya predpriyatiy malogo biznesa. Vestnik Akademi znaniy. 2020. № 3 (38). S. 10–14.
2. Bikmetova Z. M. Osnovnie napravleniya obespecheniya finansovoy bezopasnosti predpriyatiya // Aktualnie voprosi sovremennoy ekonomiki. 2019. № 6 (1). S. 363-370.
3. Burxanov A.U., Hamdamov O.N. "Moliyaviy menejment". Darslik. -Toshkent : Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020y.
4. Voxobov A., Ibroximov A., Ishonqulov N., "Moliyaviy va boshqaruv taxlili". – Toshkent: "Sharq" Nashriyot – matbaa AK, 2005y.
5. Maxmudov E.X., "Korxona iqtisodiyoti". – Toshkent: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti", 2004 y.
6. Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil: (Uslubiy ko'rgazmalar va tavsiyalar). - T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2019. – B. 197.
7. Razinkov P.I., Maksimova A.D. Klyuchevye napravleniya effektivnogo upravleniya kapitalom predpriyatiya. "Theoria: pedagogika, ekonomika, pravo". 2021. № 4(5). S. 135-141.
8. Qosimov X.Q., Aslanova D.X., Ergashev R.E., "Korxona iqtisodiyoti" o'quv qo'llanma. Samarqand, SamDU nashri 2008y.

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 05-avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM
ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.